

## TALABALAR ILMIY-TEXNIKAVIY IJODKORLIGINING UMUMPEDAGOGIK TAMOYILLARI

Ismoilov Tuychi Djabbarovich – p.f.n. A.Qodiriy nomidagi JDPI,  
Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatining mazmuniy va jarayoniy tomonlari bilan farqlanadigan umumpedagogik tamoyillari yoritilgan.

**Kalitso`zlar:** Talaba, ilmiy, texnikaviy, ijodkorlik, faoliyat, mazmuniy, jarayoniy, tomon, masala, tamoyil, uslub, umumpedagogik.

**Аннотации:** Рассмотрены различающиеся стороны процессов и содержания общепедагогических принципов в деятельности научно-техническом творчества студентов.

**Ключевые слова:** Студент, научный, технический, творчества, деятельности, содержания, процесс, сторон, задания, принцип, метод, общепедагогический.

**Abstracts:** The article dedicated to different sides of the processes and the content of general pedagogical principles in the activities of scientific and technical creativity of students.

**Keywords:** Student, scientific, technical, creativity, activities, content, process, parties, tasks, principle, method, general pedagogical.

Ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati o'zining ikki tomoni ya'ni, mazmuniy va jarayoniy tomonlari bilan farqlanadi. Uning mazmuniy tomoni – ijodkorlik masalalarini yechishning ilmiy-texnikaviy tamoyillari va uslublariga, jarayoniy tomoni – faoliyatning umumpedagogik tamoyillari, metodlari va tashkiliy shakllariga qo'yilgan talablar bilan aniqlanadi. Shunga ko'ra ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati tamoyillarining maxsus tavsifga ega va o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Buni uning faqat olgan bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi bilan emas balki, ularni qayta o'zgartirish va amalda qo'llashga yo'naltirilganligi bilan izohlash mumkin.

Shu ma'noda, ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati umumpedagogik tamoyili quyidagilarni ko'zda tutadi.

- mantiqiy yo'lni tanlash va hozirgi zamon ilmiy g'oyalari (fundamental va amaliy)ni hamda texnika va texnologiyaning rivojlanish an'analari hisobga olgan holda butun ilmiy-texnikaviy ijodkorlik jarayoni nazariy va amaliy yo'nalishlarini oddiydan murakkablik tomon uzluksiz va mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshirish;

- oliy ta'lim o'quv dasturi mazmuni va maqsadlariga mos keladigan ijodkorlik masalalari va ularni yechish metodlarini tanlash.

Bu qayd etilganlar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati umumpedagogik tamoyillariga oid ayrim tushuntirishlarni bilishni taqozo qiladi.

Ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatidagi umumpedagogik tamoyil – talabalarning hozirgi zamon ilg'or ishlab chiqarishning umumiy ilmiy asoslarini, tipik ob'ektlari va ishlab chiqarish sohasidagi mehnat funksiyalarini nazariy va amaliy o'rganishlariga qaratilgan didaktik vositalar majmuidir. Bu tamoyilni ta'lim maskanlaridagi ta'lim-tarbiya ishlarining har xil yo'nalishlari (ma'naviy-ma'rifiy, estetik, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va hokazo)ga bog'lash mumkin. Shuningdek, fan asoslarini o'rganishda umumpedagogik tamoyil hozirgi zamon texnikasi, texnologiyasi, ishlab chiqarishning iqtisodiyoti va tashkil etilishini o'quv bosqichlarining mantiqi, mazmuni va metodlari bilan mos ravishda o'rganishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatidagi umumpedagogik tamoyillari o'quv va mehnat faoliyati ob'ektlarining ijodkorlik masalasi mazmunini, uni ilmiy rahbar tomonidan o'rnatish va talabalar tomonidan o'zlashtirish usullari samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi barcha aytilganlarni hisobga olib, ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati umumpedagogik tamoyilini shartli ravishda quyidagi tamoyillar majmuasidan iborat deb uni ikki guruhga bo'lib qarash mumkin.

- |   |  |
|---|--|
| 1) Didaktik tamoyillar:                 | 2) Ma'naviy-ma'rifiy tamoyillar:       |
| - sinchkovlik,                          | - ongli munosabatda bo'lish,           |
| - ko'rgazmalilik,                       | - birdamlik,                           |
| - ilmiylik,                             | - vatanparvarlik,                      |
| - tushunarlilik,                        | - burchga va o'z ishiga sadoqatlilik,  |
| - ishlab chiqarish bilan bog'langanlik, | - tanlagan yo'nalishining mos kelishi, |
| - mustaqillik va faollik,               | - faollikni oshirish,                  |
| - individuallik va pog'onalilik.        | - rivojlantirish.                      |

Yuqorida biz, talabalar ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyatida ijodkorlik masalalarini yechishda talab qilinadigan umumpedagogik tamoyillarning mazmunini umumiy tarzda ifodaladik. Bu tamoyillarni qo'llash:

- ularning mazmunini bilish;
- ishlab chiqarishning tushunchani qo'llanadigan ob'ekti yoki jarayonining xarakterli o'ziga xos belgilarini bilishni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib, ayrim tamoyillar mazmuniga tavsif berib o'tamiz.

Didaktik tamoyillar:

*Sinchkovlik tamoyili* – bu tamoyil, o‘quv jarayonida va umuman har qanday faoliyatda ijodkorning o‘zi uchun tushunarsiz bo‘lgan noxush voqea, xodisa yoki tushunchaga befarq qaramasdan, nega shunday?, nima qilmoq kerak?, degan savol nazari bilan qarashni ko‘zda tutadi.

*Ko‘rgazmalilik tamoyili* – bu tamoyil, ijodkorlik masalasini shakllantirishda zarur bo‘lgan qurilma, mashina, mexanizm yoki boshqa vositalarning nuqsonlarini natural o‘zida tekshirib ko‘rishni nazarda tutadi.

*Ilmiylik tamoyili* – bu tamoyil, oliy o‘quv yurtlari ta‘lim tizimida eng muhim pedagogik tamoyil hisoblanib, o‘zida:

a) zamonaviy texnika rivojlanishi darajasini namoyon etuvchi nazariy va amaliy bilimlar tizimini;

b) fan qonuniyatlarining ob‘ektivlik xarakterini va ulardan insonlar faoliyatida amalda foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatishni;

v) o‘rganilayotgan xodisa, faktlarning mohiyatini aniqlashda dialektika umumiy tamoyillarini qo‘llashni;

g) har bir ilmiy fanning o‘ziga xos o‘rganish metodlaridan foydalanishni;

d) ta‘limning genetik yo‘lidan to‘g‘ri va keng foydalanishlarni mujassam holda ifodalaydi.

*Ongli munosabatda bo‘lish tamoyili* – bu tamoyil, ijodkorlik intilishi bilan faqat o‘zining shaxsiy mayl, talab va ishtiyoqini qanoatlantirishni o‘ylamasdan, undanda muhimroq bo‘lgan jamiyatga ko‘proq naf keltirishni ko‘zlab, ongli munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Chunki har qanday ijodkorlik, xususan ilm maskanlaridagi ilmiy – texnikaviy ijodkorlik o‘quv jarayoni dasturi hajmidagi yuklamadan (ishlab chiqarishda esa xizmat vazifasi burchidan) tashqari kechadigan, jiddiy ortiqcha tashvishki, bu mehnati uchun ijodkor hamisha ham rag‘bat eshitavermaydi, uning jismoniy va aqliy mehnati ko‘pincha uzoq vaqtlar o‘lchov tarzda qolib ketadi. Shunday bo‘lsa-da, oxir-oqibat uning ijodkorlikdagi erishgan ijobiy natijasi albatta yuzaga chiqadi.

*Birdamlik tamoyili* –bu tamoyil, global ma’noda – dunyo haqiqiy olimlarining xalqaro birdamligi (bir-birini chin dildan, beg‘araz qo‘llab-quvvatlashi, ko‘maklashishi)ni, ilm maskanlari miqyosida esa, masala echimini topishda har xil soha vakillarining hamjixat bo‘lib, vijdonan ulush qo‘shishni nazarda tutadi.

*Vatanparvarlik tamoyili* – bu tamoyil, o‘z vatani, xalqiga sadoqatli bo‘lish, uning ma’naviy yutuqlarini, jumladan ilmiy – texnikaviy ijodkorligini baholash, qadrlashni ko‘zda tutadi.

*O‘z ishiga sadoqatlilik tamoyili* – bu tamoyil ijodkorning o‘z ilmiy ijodkorlik ishi g‘oyasiga behad sadoqatli, ilmiy dunyoqarashi (nuqtai nazari)ning

haqqoniyligiga ishonch, tanlagan echim yo'lida dunyodagi barcha narsadan voz kechishdan ham qaytmasligini nazarda tutadi.

Talabalarning ilmiy-texnikaviy ijodkorlik faoliyati umumpedagogik tamoyilining har biri bo'yicha uning mazmuni va mohiyatini atroflicha bayon qilish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. Toshkent 2007.

2. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent. 2014.

3. Ismoilov T.J., Tog'ayev X. va b. Ijodkorlik masalalarini yechish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Jizzax 2019.

4. Ismoilov T., Umarov R., Ergasheva S. Talabalar ilmiy–texnik ijodkorlik faoliyatining tashkiliy-pedagogik va ma'naviy tamoyillari // “Ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. Jizzax. 2013.

5. Ismoilov T.J. Talabalar texnik ijodkorlik faoliyatining tashkiliy-pedagogik va ma'naviy tamoyillari // Institut professor-o'qituvchilarning an'anaviy ilmiy-amaliy, ilmiy-uslubiy konferensiyasi. 2013.